

UDK:619:636.2:617.3:616

ZOTLI SIGIRLARDA ASEPTIK PODODERMATIT JARAYONLARINI UCHRASH DARAJASI

Pardaeva Sh.A

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti tayanch-doktaranti

Mirzaev S.M

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti magistri

Ilmiy rahbar: vet.f.d., professor **Niyozov H.B.**

Annotatsiya

Qoramolchilikga ixtisoslashgan xo'jaliklarda zotli sigirlar o'rtasida aseptik pododermatitlar natijalarini fasllar bo'yicha tahlil qilganimizda qish oylarida xo'jaliklardagi jami tekshirilgan 1160 bosh hayvonlarning 199 boshida (17,1%), bahor faslida 219 boshida (18,8 %), yoz faslida 49 boshida (4,2%), kuz faslida esa 132 boshida (11,3%) va o'rtacha 149 bosh (12,8%) hayvonda aseptik pododermatit jarayonlari kechayotganligi aniqlandi.

***Kalit so'zlar:** aseptik pododermatitlar, tuyoqchalar oralig'ida dermatitlar tuyoq va yumaloq bo'g'in artriti, tuyoq kafti, teri asosida shikastlanishlar, jarohatlar, yallig'lanish, etiologiya.*

Oxirgi yillarda mamlakatimizga Yevropa mamlakatlaridan ko'plab mahsuldorligi yuqori bo'lgan zotli hayvonlar keltirilib, chorvachilikga ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaliklarga tarqatildi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, xorijdan keltirilgan naslli chorva mollarini sog'lom parvarish qilish, ulardan sifatli va

ekologik toza sut va go'sht mahsulotlari olish uchun hayvonlar saqlanadigan otxona va molxonalar zoogigienik me'yorlarga mos hamda ularda yayrash maydonchalari bo'lishi va kirish joylari esa veterinariya sanitariya talablariga javob berishi kerak. [4; 5; 6; 7;8;9; 13].

Xorij mamlakatlaridan olib kelingan mahsuldorligi yuqori bo'lgan g'unojinlarning katta sonini golshtin-friz zoti tashkil etadi. Mamlakatimizning deyarli barcha hududlarida ular uchun maxsus bog'lovsiz boqish uchun komplekslar qurilgan. Bu sigirlar yuqori sut mahsuldorligiga ega bo'lib, sut mahsulotini ko'paytiradi. Ko'pchilik fermer va mas'uliyati cheklangan xo'jaliklarda oyoqlarning distal qismi ya'ni tuyoq kasalliklari jiddiy muammo bo'lib kelmoqda. Shuning uchun ham ushbu patologiyani uchrash darajasi va ularni keltirib chiqaruvchi etiologik omillarni o'rganish dolzarb muammolardan biridir.

V.V.Gimranov va S.I.Timofeevlar fikrlari bo'yicha yirik shoxli mollar barmoq sohasidagi kasalliklar tasnifining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ortopedik dispanserlash natijasida olingan ma'lumotlarga tayangan holda tashxislash, kasallik kechishining prognozi o'tkaziladi, iqtisodiy zararni kamaytirishga yo'naltirilgan davolash-profilaktik va tashkiliy-xo'jalik tadbirlari belgilanadi va umuman olganda, chorvachilikda har qanday tasniflashning ustuvor tamoyili o'z vaqtida tashxis qo'yish, kasallik kechishini prognozlash, davolash va profilaktikaning samaradorligini aniqlashdan iborat [1].

Chorvachilik komplekslari va fermalarida ortopedik dispanserlash o'tkazish texnologik jarayonlarning ajralmas qismi bo'lishi zarurligi tadqiqotchilar tomonidan alohida ta'kidlanadi. Ularning fikrlariga ko'ra, chorvachilik komplekslarining sut va bo'rdoqi yo'nalishidagi hayvonlarini muntazam ortopedik dispanserlash sut va go'sht qoramolchiligiga veterinariya xizmati texnologiyasida samarali tadbir hisoblanadi [3].

Uzoq muddatli davolashni taqozo etadigan surunkali kasalliklar yoki patologiyalarni davolashda, tashqi klinik belgilari bo'lmaganda, aynan qonni tekshirish organizm holati haqida yetarlicha to'liq tasavvur hosil qilib, organizmda metabolik o'zgarishlarni kuzatib borish imkonini beradi, davolashni o'z vaqtida

muvoqilashtirishga yordam beradi va umuman chorvachilikning muhim iqtisodiy ko'rsatkichi hisoblangan hayvonlarning ko'payish funksiyalarining tiklanishini tezlashtiradi hamda sarf-xarajatni sezilarli pasaytiradi [2].

Hayvonlarda barmoq sohasidagi patologik jarayonlarini rivojlanishiga motisioning yetishmasligi, molxona va yayratish maydonlaridagi sanitariya holatining me'yor darajasiga javob bermasligi va asosiy omillardan biri shikastlanishlar natijasida organizmning reaktivligini pasayishi va shikastlangan joyga mikroorganizmning rivojlanishi sabab bo'lgan [10; 11; 12].

O'zbekiston chorvachilik soxasida uchraydigan yuqumsiz kasallik-larning salmog'i yuqori ekanligi bir qancha olimlar tomonidan takidlanib kelinmoqda. Bu kasalliklarning aksariyat ko'pchiligining kelib chiqish sabablari noaniqligi, veterinariya mutaxasislari oldida juda katta muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Maqsad va vazifalar

Xo'jaliklarda chetdan keltirilgan sigirlar orasida aseptik pododermatit jarayonlarini uchrash darajasini o'rganish tekshirishning asosiy maqsadi bo'lib hisoblandi.

Tadqiqot obyekti va uslublari

Sigirlar orasida aseptik pododermatit jarayonlarini uchrash darajasi, ularni keltirib chiqaruvchi etiologik omillari va klinik belgilariga oid ilmiy tekshirish ishlari va tajribalarimiz Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorva chilik va biotexnologiyalar universiteti, veterinariya profilaktikasi va davolash fakultetining «Hayvonlar anatomiyasi, gistologiyasi va patomorfologiyasi» kafedrasida, Samarqand viloyati Narpay tumani "AgroGold Spring" chorvachilik fermer xo'jaligida, Samarqand tumani "Talobot" chorvachilik fermer xo'jaligida, Samarqand tumani "Agro Bravo" chorvachilik fermer xo'jaligida, Qashqadaryo viloyati Kitob tumani "Do'stboy" chorvachilik xo'jaligida 2022-yilda o'tkazildi.

Tadqiqot natijalari

Samarqand viloyati Narpay tumani "AgroGold Spring" chorvachilik fermer xo'jaligida 2022 yilda 440 bosh qoramollar klinik tekshirilganda ularning qish oylarida

75 bosh (17,4%), bahor oylarida 78 bosh (17,7%) yoz oylarida 18 bosh (4,1%) kuz oylarida 48 bosh (10,9%) aseptik pododermatit bilan kasallanganligi va bu o'rtacha 55 boshni (12,5%) tashkil qildi. Shunga o'xshash "Talobot" chorvachilik fermer xo'jaligida 2022 yilda 180 bosh qoramollar klinik tekshirilganda ularning qish oylarida 27 bosh (15%) , bahor oylarida 36 bosh (20%) yoz oylarida 6 bosh (3,3%) kuz oylarida 24 bosh (13,3 %) .va o'rtacha 23 bosh (12,7%) hayvon aseptik pododermatit bilan kasallanganligi ma'lum bo'ldi. (1-jadval)

Samarqand tumani "Agro Bravo" chorvachilik xo'jaligida 2022-yilda 290 bosh qoramollar klinik tekshirilganda ularning qish oylarida 52 bosh (17,9%) , bahor oylarida 54 bosh (18,6%) yoz oylarida 14 bosh (4,8%) kuz oylarida 25 bosh (8,6 %) .va o'rtacha 36 bosh (12,4%) hayvonda pododermatit kasalligi borligi aniqlandi.

Qashqadaryo viloyati Kitob tumani "Do'stboy" chorvachilik fermer xo'jaligida 2022-yilda 250 bosh qoramollar klinik tekshirilganda ularning qish oylarida 45 bosh (18%), bahor oylarida 51 bosh (20,4%) yoz oylarida 11 bosh (4,4%) kuz oylarida 35 bosh (14%) .va o'rtacha 35 boshni (14%) tashkil etdi.

Olingan natijalarni fasllar bo'yicha taxlil qilganimizda qish oylarida xo'jaliklardagi jami tekshirilgan 1160 bosh xayvonlarning 199 boshida (17,1%), bahor faslida 219 boshida (18,8%), yoz faslida 49 boshida (4,2%), kuz faslida esa 132 boshida (11,3%) va o'rtacha 149 bosh (12,8%) hayvonda aseptik pododermatit jarayonlari kechayotganligi aniqlandi.

Tekshirishlar natijasida xo'jaliklardagi barcha oqsayotgan hayvonlarning 78% da orqa oyoqlarning ko'proq tashqi tuyoqchalarida va 22% da esa oldingi oyoqlarning ko'proq ichki tuyoqchalarida shikastlanganligi aniqlandi. Kasal hayvonlarda bitta orqa oyoqning shikastlanishi 93% hayvonda kuzatilgan bo'lsa, ikki orqa oyoqning shikastlanishi esa 7% hayvonda aniqlandi.

Xulosa

Tekshirishlar natijasida qoramolchilikga ixtisoslashgan xo'jaliklardagi zotli sigirlarda fasllar bo'yicha taxlil qilganimizda qish oylarida xo'jaliklardagi jami tekshirilgan 1160 bosh xayvonlarning 199 boshida (17,1%), bahor faslida 219 boshida

(18,8%), yoz faslida 49 boshida (4,2%), kuz faslida esa 132 boshida (11,3%) va o'rtacha 149 bosh (12,8%) hayvonda aseptik pododermatit jarayonlari tashkil etishi qayd etilib, kasallangan sigirlarda asosan ko'proq 78% da orqa oyoqlarning ko'proq tashqi tuyuqchalari va 22% da esa oldingi oyoqlarning ko'proq ichki tuyuqchalari shikastlanganligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. В.В.Гимранов, С.В. Тимофаев Классификация болезней в области пальцев у крупного рогатого скота // Ветеринария. М., 2006. -№ 2. –С. 48-49.
2. Н.А.Дидковский., Л.И.Дворецкий Новые методы лечения ран на промышленных комплексах // Ветеринария. М., 1996. -№ 7. –С. 11-12.
3. С.В.Тимофеев, Ю.И.Филиппов., В.В.Гимранов Болезни копытец и технология ортопедической диспансеризации / Ветеринарная медицина. М., 2009. -№ 1-2. – С. 78-80.
4. Х.Б.Ниязов, & Х.Х.Эшкuvatov, (2019). БИОЛОГИЧЕСКОЕ ДЕЙСТВИЕ НА ОРГАНИЗМ КОРОВ АУТОКРОВИ, ОБЛУЧЕННОЙ НЕОН-ГЕЛИЕВЫМИ ЛАЗЕРНЫМИ ЛУЧАМИ. In *СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ, ТРАДИЦИИ И ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В РАЗВИТИИ АПК* (pp. 100-105).
5. Х.Б.Ниязов, (2016). БИОЛОГИЧЕСКОЕ ДЕЙСТВИЕ НА ОРГАНИЗМ ЛОШАДЕЙ АУТОКРОВИ, ОБЛУЧЕННОЙ НЕОН-ГЕЛИЕВЫМИ ЛАЗЕРНЫМИ ЛУЧАМИ. *Путь науки*, (10), 44-46.
6. Х.Умаров, & Х.Б.Ниязов, (2021). Распространение и этиология острых асептических миозитов у спортивных лошадей.
7. Hakim, N, Numon, D, & Nasriddin, D. (2021). TREATMENT OF ASEPTIC DISEASES OF LIMB DISTAL PART JOINTS IN UZBEK SPORT HORSES. *Journal of Microbiology, Biotechnology and Food Sciences*, 2021, 478-481.

8. Kh, D. M. (2021). ETIOLOGY, FREQUENCY AND CLINICAL MANIFESTATIONS OF PURULENT INFLAMMATION OF THE FINGER JOINT IN SPORT HORSES. *AcademicaGlobe: InderscienceResearch*, 2(6), 367-372.
9. A.K Roziboev., H.B.Niyazov, & H.K.Bazarov. (2022). Microbes And Their Sensitivity To Antibiotics In Samples From The Joints Of Horses With Purulous Inflammation Processes. *JournalofPositiveSchoolPsychology*, 6(9), 2740-2745.
10. B.Y.Nuriddinov., &H.B.Niyazov. (2022). MORPHOLOGICAL INDICATORS OF BLOOD IN THE TREATMENT OF PURULOUS-NECROTIC PROCESSES IN THE TOES OF COWS WITH DIFFERENT METHODS. *Conferencea*, 150-155.
11. B.Y.Nuriddinov., & H.B.Niyazov, (2022). INFLUENCE OF ETIOLOGICAL FACTORS AND SEASONS ON THE OCCURRENCE OF PURULOUS-NECROTIC PROCESSES IN THE TOES OF BREEDDED COWS. *Conferencea*, 116-122.
12. H.B.Niyozov, N.N.Ergashev. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary*, 2019
13. H.B.Niyazov, A.K.Ruzibayev, X.Fottayev- *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 2019